



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TABIAT RESURSLARI VAZIRLIGI

100043, Toshkent sh., Chilonzor t.,
Bunyodkor shoh k., 7a-uy.
71-207-11-02,
uznature@exat.uz
www.eco.gov.uz

2023-yil "27" - aprel

02-01/10-579-son

Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Tabiat resurslari vazirligi,
viloyatlar va Toshkent shahar
tabiat resurslari boshqarmalariga

O‘zbekiston Respublikasi tabiat resurslari vazirining 2023-yil 10-apreldagi 91-son buyrug‘iga muvofiq, sud organlariga da’vo arizalari kiritish bilan bog‘liq pochta xarajatlari uchun ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish choralari ko‘rilsin.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning kompensatsiya to‘lovlaridan mavjud debitor qarzdorliklarini majburiy undirish yuzasidan iqtisodiy sudlarga da’vo arizalari kiritishda pochta xarajatlarini “javobgar” (qarzdor) hisobidan undirish va hududiy boshqarmaning maxsus hisob raqamiga qaytarish, qaytarilgan mablag‘lar takroran sud organlariga pochta xarajatlari uchun sarflanishini ta’minlashingizni so‘rayman.

Sud pochta xarajatlari uchun ajratilgan mablag‘larning sarflanishi to‘g‘risida axborot ilovadagi jadvalga muvofiq har oying 5-sanasidan kechiktirmay Tabiat resurslari vazirligining Jamg‘armalarini boshqarish xizmatiga kiritilsin.

Ilova: 1 varaq.

Vazirning
birinchi o‘rinbosari



O. Qudratov

Ijrochi: S.Qodirov
Tel.: 71 207 07 70 (1735#)